

**JIZZAX VILOYATIDAGI QIZIL KITOBGA KIRITILGAN
BURCHOQDOSHLAR YOKI DUKKAKDOSHLAR (FABACEAE) OILASI
VAKILLARINING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dots.Azimova D.o'qituvchi Sharipova M., 2-bosqich talabasi

Mardiyeva S.

dilya 7662323@mail.ru

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Burchoqdoshlar yoki dukkakdoshlar (Fabaceae), Qizil kitob, status, fenologiya.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada "Qizil kitob" haqida, unga kiritilgan o'simliklar, kiritish tartiblari, ular haqida ma'lumotlarning qay tarzda keltirilishi haqida aytib o'tilgan. Undan tashqari Jizzax viloyati hududida o'sadigan Qizil kitobga kiritilgan Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasi vakillarining uchrash joylari, shifobaxshlik xususiyatlari, ularning biologiyasi va ekologiyasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kirish

Tirik organizmlarning klassifikatsiyasini shakllantirishda olimlar tarixiy taraqqiyot davomida o'simliklar va hayvonlarning juda ko'p turlari qirilib ketganligini aniqlashgan. Inson tomonidan ularning qirib tashlanishi, yashash joylarining buzib tashlanishi shunga olib keldiki, natijada ularning ko'pchiligi kamyob va muhofazaga muhtoj bo'lib qoldi. TMQHI tashabbusiga ko'ra ilk bor 1966-yilda muhofaza qilinishi kerak bo'lgan turlarni o'z ichiga olgan xalqaro "Qizil kitob" nashr etildi. O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik, hayvonlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1979-yil ta'sis etilgan "Qizil kitob"da o'z aksini topgan. O'zbekiston "Qizil kitob"ining o'simliklar olamiga bag'ishlangan qismi 1984-yil nashr qilingan va unga 163 tur o'simlik kiritilgan. "Qizil kitob" davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritilgan o'simliklar va hayvon turlariga Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan kamyobligiga ko'ra 4 maqom (status) berildi:

- 0. yo'qolgan va yo'qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;
- 1. yo'qolib borayotgan (areali va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar;
- 2. kamyob, bevosita yo'qolish xavfi bo'lmadasa, kichik maydonlarda kamdan kam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar;
- 3. muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson ta'sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar;

"Qizil kitob" ga kiritiladigan tirik organizmlar bo'yicha taklifni ilmiy tekshirish muassasalari,

davlat va jamoat tashkilotlari, ayrim olimlar tavsija qilishi mumkin. Muhofaza qilinishi natijasida o‘z arealini tiklagan va yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilmaydigan o‘simlik va hayvonlar “Qizil kitob” dan chiqariladi. Qizil kitobda har bir turning o‘zbekcha, ruscha, lotincha nomlari va ularning qaysi oilaga mansubligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, turlarning qisqacha tavsifi (hayotiy shakli, bo‘yi, shox-shabbasi, bargi, guli, mevasi va fenologiyasi), tarqalishi va chizma xaritada uchraydigan joylari keltirilgan. Tabiiy sharoitda o‘stirish usullariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 17-iyuldaggi PQ-3861-son qarori ijrosini ta’minalash, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi hayvonlar va yovvoyi tarzda o‘suvchi o‘simliklarning turlari (kichik turlari)ni saqlab qolish va qayta ko‘paytirishni ta’minalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq;

1. Kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o‘simliklarni saqlab qolish bo‘yicha idoralararo komissiya tarkibiga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birqalikda o‘zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi raisi S.R. Xolmuradov hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi B.T. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

Jizzax viloyati O‘rta Osiyoning markaziy qismida, Turon tabiiy -geografik kichik o‘lkasining tog‘oldi va tog‘ oralig‘i tekisliklari hududida joylashgan. O‘zbekiston miqyosida viloyat mamlakatimizning deyarli markazida joylashgan bo‘lib, Mirzacho‘l, Qizilqum va Zarafshon tabiiy geografik o‘lkalarining ma‘lum bir qismlarini o‘z ichiga oladi. Viloyatning umumiyligi maydoni 21,2 ming kv km, aholisi 1,4 mln kishidan ortiq. Viloyat hududi sharqdan g‘arbga 182,5 km, shimaldan janubga 175 km gacha davom etadi. Jizzax viloyati florasining flora va yuksak o‘simliklarini o‘rganish masalasi dolzarb hisoblanadi. Molguzar tog‘ tizmasining shimoliy qiyaliklari, hozirgi kunda butunlay sug‘orish yerlariga o‘zlashtirilgan, qo‘riq yerlariga qaratilgan. Kuchli bo‘linmalar, relefning murakkabligi, balandligi, iqlim sharoiti Jizzax viloyati florasining xilma-xilligidan dalolat beradi. Bu yerda O‘rta Osiyoning barcha tog‘ va tog‘ oldi turlari keng tarqalgan. Lekin Jizzax viloyati O‘zbekistonning aholisi quyuq bo‘lgan va o‘zlashtirilgan yerlar ko‘p bo‘lgan areal hisoblanadi. Bu yerda uy hayvonlarini ortiqcha boqilishi, boshoqli o‘simliklarni ekilishi mazkur hududning florasining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, o‘simliklarning nihoyatda kamayishi va yer eroziyasi kuchayib bormoqda. Molguzar tog‘ tizmasining florasining asosiy qismini “Qizil kitob” ga kiritilgan turlari tashkil qiladi. Jizzax viloyatida o‘simliklarning 52 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Ulardan 0 kategoriyasining 1 turi (ehtimol yo‘q bo‘lib ketishi mumkin), 1 toifadagi 14 tur (yo‘qolib ketish xavfi ostida), 2 toifadagi 29 ta (kam uchraydigan) va 3-toifadagi 8 ta tur (kamayib ketgan), Qizil kitobga kiradigan 52 turidan 46 tasi qo‘riqxonalar va milliy bog‘larda va 6 tasida muhofaza qilingan

hududlarda himoya bilan ta'minlangan. Jizzax viloyatida Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan (IUCNRedList) o'simliklarning 9 turi mavjud, ulardan faqat bittasi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan - IUCNRedList.

Burchoqdoshlar – *Fabaceae* oilasi

Burchoqdoshlar – *Fabaceae* oilasi eng kata oilalardan biri bo'lib, 650 turkumga mansub 18 000 turni o'z ichiga oladi. Bu oilasi vakillari yer sharining hamma quruqliklarida uchraydi. O'zbekistonda esa 35 turkumga mansub 422 turi o'sadi. Bu oilaga o'tlar, chala butalar, butalar, lianalar, ba'zan daraxtlar ham kiradi. Ularning barglari murakkab patsimon, panjasimon, uch bo'lakchali, goho oddiy bo'ladi. Gullari ikki jinsli noto'g'ri bo'lib, gulyon barglari bor. Gulkosachabarg 4-5 ta, gultojisi ham 4-5 ta, changchisi 10 ta, shundan 9 tasi qo'shilib o'sgan, bittasi alohida. Bu oila 3ta oilachaga bo'linadi:

1. Sezalpindoshlar - *Caesalpinaceae*.
2. Mimozadoshlar - *Mimosaceae*.
3. Burchoqdoshlar – *Fabaceae*.

Burchoqdoshlar oilasi beda (*Medicago L.*), qashqarbeda (*Melilotus L.*), sebarga (*Trifolium L.*), esparset (*Onobrichus L.*), no'xat (*Cicer L.*), burchaq (*Lathyrus L.*), yasmiq (*Lens L.*), boqila (*Vicia L.*), miya (*Glycyrrhiza L.*), yantoq (*Alhagi L.*), afsonak (*Thermopsis L.*), ko'k no'xot (*Pisum L.*), astragal (*Astragalus L.*) kabilar kiradi. Oilaning eng yirik turkumi astragal (*Astragalus L.*) bo'lib, unga 3300 ga yaqin tur kiradi.

Jizzax viloyatidagi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan burchoqdoshlar oilasi vakillari bilan tanishamiz.

	Tur, oila	Hudud	Kate goriya	Jizzax viloyatida mahalliy aholining joylashishi
	<i>Astragalus belolipovii</i> KamelinexF.O. Khass. etN. Sulejm., астрагал Белолипова, Белолипов астрагали (<i>Fabaceae</i>)	Zomin davlat qo'riqxonasi	1	Turkiston tizmasi (Kussoy)
	<i>Astragalus kelleri</i> Popov, астрагал Келлера, Келлер астрагали (<i>Fabaceae</i>)	Zomin davlat qo'riqxonasi	2	Nuratau (Hayatsay, Asrafsay, Uchmasoyning quyi oqimi). Koytash (Amandaryoning quyi oqimi, Ustaxonsov, Piyazli shahri). Malguzar (Jizzax yaqinida)

	<i>Astragalus knorriganus</i> Boriss., астрагал Кнорринг, Кнорринг астрагали (<i>Fabaceae</i>) Zomin davlat qo‘riqxonasi	Zomin davlat qo‘riqxonasi	2	Nuratau (Yangi qishloq yaqinida, Deristan qishlog‘i, Saurbel tor ko‘chasi). Koytash (Jizzaxli qishlog‘i yaqinida). Malguzar (Jitiny-Kutan qishlog‘i yaqinida, Tamerlan darvozasi darasi). Turkiston (quyi Guralashsoy)
	<i>Astragalus leptophyus</i> Vved., астрагал тонкопузырчатый, пуфак астрагал (<i>Fabaceae</i>)	Zomin davlat qo‘riqxonasi	2	Nuratau (Hayatsay, Tichchasay, Karsay, Bolosay, Kulbasay). Turkiston (Teraklisoy)
	<i>Cicer grande</i> Korotkova, нут большой, иирик нұхат (<i>Fabaceae</i>)	Nurota davlat qo‘riqxonasi	2	Nurota tog’ tizmasi

Xulosa qilib aytganda, vatanimiz hududida xususan Jizzax viloyati hududidagi Qizil kitobga kiritilgan burchoqdoshlar oilasi vakillarini chuqur o‘rganish, ularning hayot faoliyati o‘rganish natijasida ularning foydali xususiyatlarini yaxshiroq ochib berishga imkon yaratadi hamda ularning Qizil kitobga kiritilgan vakillarining sonini oshirishga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova. Biologiya 11-sinf darslik. Toshkent-2018.
2. F.O‘.Xasanov “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. 1-tom Toshkent-2016
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 17-iyuldagい PQ-3861-son qarori.
4. M.H.Axrorova “Jizzax viloyati florasiidagi Qizil kitobga kiritilgan turlarining biologiyasi, ekologiyasi, o‘qitish metodikasi”. Jizzax-2020.

5. G.S.Tursunboyeva, Sh.H.Komilova "Botanika asoslari" qo'llanma. Toshkent-2009.
6. O'.Pratov, A.S.To'xtayev, F.O'. Azimova, I.Z.Saparboyev, M.T.Umaraliyeva. Botanika 6-sinf darslik. Toshkent-“O'zbekiston”-2017
7. S.X.Mardiyeva "Jizzax viloyatidagi Qizil Kitobga kiritilgan Qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasi biologiyasi va ekologiyasi" 2023.
8. A.A.Matkarmova "Botanika" o'quv qo'llanma. Toshkent-2018.